

G‘ayrat Murodov, Nafisa A’loeva

**ELPARVAR**

**IJODKOR**

Buxoro” nashriyoti  
2009 yil

Ushbu risolada serqirra ijodkor, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan jurnalist “Oltin qalam” xalqaro tanlovi g‘olibi Jahongir Ismoilovning hayot va ijod yo‘li yoritilgan. Shoir, adib, publitsist-jurnalist sifatida samarali faoliyat ko‘rsatib kelayotgan qalam sohibi ijodiga xos yetakchi xususiyatlar oydinlashtirilgan. Kitobcha mualliflari adabiyotshunoslikning muayyan muammolari nuqtai nazaridan mazkur qalam sohibi ijodi namunalarini tadqiq etar ekanlar, asosiy e’tiborni badiiyat va ijtimoiy tafakkur qirralariga qaratishga harrakat etganlar.

Risola milliy adabiyot sohasi bo‘yicha ta’lim olayotgan talaba, magistrant, zamonaviy milliy adabiyot jarayonini o‘rganayotgan aspirant hamda doktorantlar, shuningdek, badiiy so‘z ixlosmandlariga mo‘ljallab yozilgan.

### **Mas’ul muharrir:**

**Abdulhamid Xolmurodov** – filologiya fanlari doktori, Navoiy davlat pedagogika instituti professori.

### **Taqrizchilar:**

**Samad Azimov, Yoqub Saidov** – Buxoro davlat universiteti dotsentlari.

**Risola ushbu ish hammuallifi**  
- badiiy so‘zning fidokor  
muxlisasi Nafisa  
A’LOEVA  
(1985- 2008)  
**ning yorqin xotirasiga**  
**bag‘ishlandi.**

## **MUQADDIMA**

Yurtimiz istiqlolga erishgach, ko‘pgina imkoniyatlar yaratildi, o‘nlab sohalarda yangidan yangi zafar marralari zabit etila boshlandi. Shu jumladan, san’atning sohasi bulmish badiiy ijodda ham jiddiy sifat o‘zgarishlari sodir bo‘layotir.

Bugungi kundagi Buxoro adabiy muxitida bir kator ijodkorlar borki, ular xalqning dardi, o‘y-hasratlari, quvonch va orzulari bilan hamohang ijod qilib kelmoqdalar. Bular Cadriddin Salim Buxoriy, Ahad Hasan, Samandar Vohidov, Toshpo‘lat Ahmad, G‘ulom Shomurodov, Jahongir Ismoilov, Jo‘ra Fozil , Isroil Subhoniy, Mustaqim Jumaev, Sulaymon Shodiev va boshqalar. Bu ijodkorlarning ayrimlari ijodiga bag‘ishlangan ishlar uchrasa-da, ayrimlari hali hanuz o‘z tadqiqotchilarini kutayotir. Jumladan, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi va Jurnalistlar uyushmasi a’zosi, O‘zbekistonda xizmat kursatgan jurnalist, shoir va nosir Jaxongir Ismoilov ijodi haligacha mufassal o‘rganilgan emas.

To‘g‘ri bu ijodkor asarlari haqida taqrizlar va maqolalar mavjud. Sadriddin Salim Buxoriy va Samad Azimovning “Ikki qissa saboqlari” (“Hurriyat”), Rashid Aslonovning “So‘z iztirobi va el ehtiromi” ( “Ma’rifat gulshani”), Zuhra Qurbonovaning “Oltin qalam” sohibi”(Oila va jamiyat”) maqola va taqrizlari shu jumlaga kiradi. Sermahsul shoir, nosir, publitsist J.Ismoilov asarlari xalk, millat orzu-

umidlariga hamohang . U xalqchil ijodi bilan el nazariga tushdi, o‘z muxlislarini topdi.

Salohiyatli shoir va adib ijodiy mahsuli haqida hanuzgacha yirikroq ish yaratilmaganligi ushbu risolani yozish ehtiyojini yuzaga keltirdi.

Jahongir Ismoilov o‘zining mo‘jazgina ijod chashmasidan ma’naviy chanqog‘ini qondirgan talay muxlislarga ega. U nafaqat she’riyat va nasrda, shuningdek, jurnalistika sohasida ham xalq ko‘ngliga yo‘l topa olgan ijodkor.

Jahongir Ismoilov ijodining kattagina qismini she’riy asarlar tashkil etadi. Hozirga qadar uning “Dil izhori” “Yurtim tarovati” “Sog‘inch” nomli she’riy to‘plamlari bosilib chiqqan.

O‘zbek adabiyoti tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak ham nosir, ham shoir ijodkorlarimizning salmog‘i oz emasligiga amin bo‘lamiz. To‘g‘ri, ijodkor shaxs ijod bo‘sag‘asida turar ekan, adabiyotning har bir ko‘chasiga kirib chiqadi. Iqtidori qaysisiga yetadi, shuuri qaysisiga moyil: she’rgami yoki nasrgami? O‘z yo‘lini tanlab qalamini charxlab olgach muayyan sohaning (she’riyat yoki nasrning) ravnaqi uchun xizmat qiladi. Lekin shunday ijodkorlar borki, ularning tishi nasrga ham, nazmga ham o‘tadi. Ular uchun nasr tug‘ilajak o‘g‘il, nazm tug‘ilajak qiz.

Jahongir Ismoilov ana shu ikkinchi toifaga mansub ijodkor. Yozuvchining bugunga qadar “Tutash taqdirlar” “Mashinasini o‘g‘irlatgan domla” “Buyog‘i qandoq bo‘larkin?”, “So‘nggi manzil”, “Toshboy GAI hangomalari” nomli prozaik asarlari chop etilgan.

Fidoiy ijodkor yoniq qalb va ijtimoiy jasorat bilan yozilgan o‘nlab publitsistik maqolalarining ham muallifidir. Mamlakatimizning nufuzli gazeta va jurnallarida chop etilgan bunday ishlari el-yurt dardida yonib yashaydigan vatanparvar inson hamda vijdonli qalam sohibi ekanligidan dalolat beradi.

## **HAYOT DORULFUNUNI**

Jahongir Ismoilov 1952 yil Navoiy viloyati Qiziltepa tumanining Toshrabot qishlog‘ida, ziyoli oilasida tug‘ildi. Dastlabki savodini qishloqdagι mактабда chиqарған. Yosh Jahongir o‘quvchilik paytidayoq ijod bilan shug‘ullanib turdi. U o‘sha davrlarni xotirlar ekan: “Mening birinchi ustozim otam - ona tili va adabiyot o‘qituvchisi Xolmurod Ismoilovdir (joylari jannatda bo‘lsin). U kishi rahbarligida maktab ijodiy to‘garaklarida, devoriy gazetalarda, “Tong yulduzi” gazetasi va “Gulxan” jurnalida havaskor sifatidagi mashqlarimiz e’lon qilib turilardi. Ayniqsa, “Pioneer ertaligi” degan radio eshittirishida qatnashish menga olam-olam zavq bag‘ishlar edi,” - deydi.

Unga ilk ilhom manbai so‘lim va go‘zal Toshrabot qishlog‘i bo‘ldi.

**Toshrabot,  
Tug‘ilgan go‘shamsan!  
Noming –  
Tug‘yonli qalbimdan o‘chmaydi zinhor,  
Menga to‘tiyodir, dunyodir boring,  
Ishqim etolmasman so‘z bilan izhor.**

Garchi Toshrabot olamda parcha, ona yer bag‘rida bir nuqtadek bo‘lsa-da, lekin yosh Jahongirga ilhom bag‘ishlovchi kunduzlariga oy ham, quyosh ham, yulduzlar ham ega edi.

Jahongir ulg‘aygach, o‘qish, ijodni sayqal topshirishga bo‘lgan intilish uni qaynoq va jo‘shqin shahar – azim Toshkent sari yetakladi. 1970 yilda u Toshkent davlat universiteti (hozirgi O‘zbekiston Milliy universiteti) jurnalistika fakultetiga o‘qishga kirdi. U bu yerda o‘qir ekan, ijodning nozik qirralari bilan tanishdi, jahon adabiyoti haqidagi

tasavvurini orttirdi. “Universitet menga jahon adabiyoti, ayniqsa, rus adabiyoti eshiklarini ochib berdi. Ularning kutubxonalaridan kechki navbatda ham foydalanardik. Biror yangi asar yoxud asar tarjima chiqibdi degan gapni eshitsak bo‘ldi. Kursdoshlarim bilan o‘sha asarni qidirib topardik” deydi ijodkor biz bilan bo‘lgan suhbatda.

Darslarda domlalarning ma’ruzalari, ijodkorlar bilan uchrashuvlar va shaharning jo‘shqin hayoti uning nazariy va amaliy bilimlarini to‘ldirib bordi. Talabalikdagi paxta mavsumlari esa chinakam amaliyot maktabi bo‘ldi. Nafaqat ijodkor balki haqiqiy inson bo‘lib yetishishida ham, chin do‘stlar orttirishda ham paxta mavsumining foydasi cheksiz edi.

**Noxos kirib kelar qalbingga sevgi,  
Oyday bir go‘zalga gullar tutasan ,  
Tuyg‘ularing nurday tiniq va ezgu,  
Bu yog‘i armonsiz baxtli o‘tasan**

kabi misralarni u ana shunday hayotdan sarmast bo‘lib yurgan chog‘larida kuylagan bo‘lsa, ajabmas. “Studentligimda – deydi Jaxongir aka,- A.Oripovning “Mitti yulduz” kitobchasini yoddan bilardim. Uyg‘un, Hamid Olimjon, Oybek, Erkin Vohidov kabi shoirlardan ham chakkimasdim. Klassiklarimizdan Navoiy, Bobur, Mashrab, Uvaysiy, Nodiralarni qiziqib o‘qirdim (“hozir ham” deb qo‘ydi gap orasida yarim tabassum bilan). Juhon adabiyoti esa o‘zga bir olam. Har bir asar ustida kechalari bilan tortishardik tengqurlar bilan. Pushkin, Mayakovskiy, Gorkiylar har biri bir maktab, Dostoevskiy, Tolstoy, Chexov, Valter Skott kabi buyuklarning asarini o‘qiganda 10-15 kunlab o‘sha asar xayoli bilan yashab, xuddi o‘sha olamga kirgandek bo‘lardik go‘yo.”

Ha u talabalik davrlarida yaxshigina ijodiy muhit ta’sirida qalamini charxlab oldi.

Unga hayott yana bir ajoyib tuhfa – sevikli yor hadya qildi. Shoira va jurnalist Soraxon Toshevaga uylandi. Biri -biridan shirin farzandlarning ota-onasi bo‘lishdi. Soraxon ham badiiy ijodga aloqador ayol bo‘lganligi uchun turmush o‘rtog‘i ijodiga kuch- quvvat bag‘ishladi. Uning quvonchu tashvishlariga bab-baravar sherik bo‘ldi. Quyidagi satrlarni biz shu fikrga hamohang tarzda o‘qiyamiz:

**Yashayapman orzularning izmidan jo‘shib,  
Kuymanishim oydin iqbol etajak tortiq.  
Chin do‘stlarim sevinadi baxtimni ko‘rib,  
Va lekin sen quvonasan hammadan ortiq.**

1975 yilda universitetini tamomlab Buxoro davlat pedagogika institutining (hozirgi Buxoro davlat universiteti ) “ Ilg‘or fan uchun ” ( (hozirgi “Buxoro universiteti”) ko‘p nusxali gazetasida muharrir sifatida faoliyatini boshlaydi. Bir yil o‘tar – o‘tmas barcha er yigitlar singari Vatan oldidagi burchini ado etishga, ya’ni harbiy xizmat safariga jo‘nadi. Bir yarim yillik xizmat mobaynida shoir endi jismonan chiniqdi, haqiqiy , jasur, mard va dovyurak yigit bo‘lib qaytdi.

1978 yilda “Buxoro haqiqati ” (hozirgi “Buxoronomo”) gazetasi tahririyatiga muxbir bo‘lib ishga olindi. U jurnalistika sohasiga sho‘ng‘ib ketdi. U 1984-1988 yillarda shu tahririyatda madaniyat va turmush, adabiyot va san’at, huquq targ‘iboti bo‘limlarini boshkardi. Shu paytlarda u o‘zining “ ham publitsistika, ham adabiyot ijod sohasidagi ustozlar”i Omon Muxtor, Jamol Kamol, Toshpo‘lat Hamid kabilardan ijodning sirli saboqlarini qunt bilan o‘rgandi.

1988-1996 yillarda gazetaning bo‘lim muharriri sifatida faoliyat ko‘rsatdi. Publitsistik qobiliyati bilan e’tibor qozona boshladi. 1996-2002 yillarda Buxoro viloyat xalq ta’limi bo‘limiga qarashli “Buxoro muallimi” gazetasida muharrirlik qilish bilan bir qatorda respublika o‘qituvchilarining “ Ma’rifat ” gazetasiga o‘rindoshlik asosida Buxoro viloyat bo‘yicha maxsus muxbiri vazifalarida ishlaydi. Shu yillar davomidagi tinimsiz mehnati, izlanishlari unga obro‘ keltirdi.”Ma’rifat ” gazetasining 70-yilligi munosabati bilan . “Xalq ta’limi a’lochisi ” ko‘krak nishoniga ega bo‘ldi.

O‘zining tinimsiz mehnati, noyob ijodi bilan ommaning e’tiboriga tushgan J.Ismoilov 2002 yildan Buxoro viloyat hokimligining “ Buxoronomo ” hamda “Buxarskiy vestnik” viloyat gazetalarining bosh muharriri vazifasida ishlay boshladi. Uni viloyat, qolaversa, respublika miqyosida ham mohir jurnalist, iste’dodli yozuvchi, yosh qalamkashlarining mehribon ustozи sifatida yaxshi tanishadi. U dolzarb mavzudagi materiallar, lavha va ocherklari, publitsistik maqolalari

nafaqat viloyat gazetalarida, balki respublika ommaviy axborot vositalari sahifalarida ham muntazam bosilmoqda.

O‘zbekiston jurnalistlar ijodiy uyushmasi viloyat bo‘limining raisi lavozimida ham faol ish olib bormoqda. Ushbu bo‘lim huzurida “Yosh jurnalistlar klubi” tashkil etilgan bo‘lib J.Ismoilov uning rahbaridir.

Ijodkorning matbuot sohasidagi ko‘p yillik xizmatlari e’tiborga olinib, unga 2002 yilda O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan jurnalist faxriy unvoni burilgan.

J.I qalb kishisi sifatida biz bilan o‘z armonlarini ham baham ko‘rdi. “Shaharga - qaynoq hayotga-ku kirib keldim, ammo, ota-onam, sokin qishlog‘im...ni ko‘ngil qurmag‘ur tez-tez qo‘msab turishini tan olmay ilojim yo‘q. Hali ham esimda: kun qaytib teraklar va tollar qorayishi arafasida paxtazorlardan qizlarning kulgusi ko‘chani to‘ldirib uyga qaytishlari...ular orasida singlim ham bo‘ladi, albatta. Oydan oppoq shula yog‘ayotganda onam unga sigir sog‘ishni buyurgisi kelmay o‘zi sog‘adi...”

**Ulkan shahar mudraydi tunda,  
Xayol bosib kelar xonamni.  
Sog‘insam goh ko‘raman tushda  
Qishloq oppoq dala, onamni...**

Keyinchalik bo‘larning barchasi uning ijodida akslana bordi.

## **SHE'RIYATNING O'ZI ULUG' DARD**

She'riyat maydoni va uning yo'llari tog' etagidagi qir adirlardan tortib to cho'qqilarga qadar bo'lgan kengliklar, u yerlardagi katta - kichik xarsang toshli notejis so'qmoqlarga qiyos qilishdir. Albatta, bunday yo'llarda yurish mushkul, lekin uning o'ziga yarasha gashti bor. Sal ehtiyotsiz bo'lgan kishini oyog'idan yiqitadi o'sha toshlar.

Biroq u joylarning havosi sof, manzarasi nihoyatda go'zal. Shuning uchun hammaning toqqa chiqqisi keladi. Ba'zilar esa chiroyli maysazorlarni toptab, u yerga turli – tuman axlatlarni tashlab ketadilar.

Tog' oshiqlari – alpinistlar esa tog' cho'qqilarini zabit etish uchun tinmay harakat qiladilar, ularning har biri o'ziga mos yo'l izlaydi, yuksak dovonlarni oshib o'tish usullarini qidiradi, xullas, cho'qqiga intiladi. Qaysiki alpinist zaxmatkash, iqtidorli, mahoratli bo'lsa, u barcha qiyinchiliklariga bardosh berib va yengib yuksakka tirmashadi va chiqadi. Xuddi shuningdek shoirlarni ham o'sha alpinistlarga qiyos qilamiz, chunki hayot, she'riyat yo'llari g'oyat murakkab, notejis bo'lib, ular shu so'qmoqlarning sirlarini mukammal o'rganishlari va bularni insonlarga badiiy til orqali aytib berishlari kerak. O'tgan asrning 70-yillarida adabiyot maydoniga kirib kelgan Jahongir Ismoilov shunday zahmatkash va mehnatkash, xalqparvar va insonparvar o'ychan va faylasuf shoirdir. Uning uzoq yillar davomidagi betinim mehnati, mushohadasi, izlanuvchanligi bilan topgan yo'li mangulikka tutash.

**Sonsiz kapalaklar qo'nganday xuddi  
Ko'klam shoxchalarga gullar to'shadi.  
Biroq daraxt qancha bahorni ko'rди,  
Do'stim ildizlar ham asli o'shadir.**

Inson doim nimanidir ko'zlaymi, nimanidir izlaydi, u shu orzu bilan, umid bilan yashaydi, shunday bo'limganida edi, yashashning

qizig‘i qolmas edi. Jahongir Ismoilov odamlarning shu ahtarayotgan narsasini, ko‘nglida yurgan gaplarini badiiy tahlil qiladi, tadqiq etadi, nafis va nozik his tuyg‘ular to‘la so‘zlar ila aytib beradi.

Adabiyotshunos olim Ozod Sharafiddinov: “Ijod qilmoq ko‘nglidagi eng ardoqli fikrlarni, eng noyob his tuyg‘ularni odamlar bilan baham ko‘rmakdir,” -deb yozgan edi. Olimning bu fikridan Jahongir Ismoilov she’riyati ham mustasno emas. Haqiqatdan ham uning har bir misrasi, shu misralarga singgan har bir fikri, g‘oyasi umuminsoniyat taqdiri, orzu-o‘ylari, niyati bilan bog‘liq.

O‘z o‘rnida shuni ham aytib o‘tish kerakki, shoир ham har bir odamni o‘ziga ustoz sanaydi, chunki ular shoирga nimanidir o‘rgatadi, nimanidir saboq beradi va ayni choqda nimasidir she’r yozish uchun turki bo‘ladi lekin xalq hamisha ham shoирni o‘ziga ustod, yaqin hamdard do‘s bilavermaydi. Jahongir Ismoilov esa o‘z she’riyati bilan umuminsoniyatning do‘sti, hamroxi, hamdardi. Buning birinchi sababi uning hayotni, vatanni, xalqni chin dildan sevishidir:

**Ulkan shahar mudraydi tunda,  
Xayol bosib kelar xonamni.  
Men ko‘raman tasavvurimda,  
Qishloq, oppoq dala, onamni...**

(“Sog‘inch” she’ridan ).

Yoki:

**Borliq yog‘du ummoniga g‘arq,  
Men ham qonib yog‘du ichayin.  
Vujudimni qamrab olsin baxt,  
Bahorimni suyib quchayin.**

(“Bahor zavqi” ).

Hayot turli – tuman ranglari, qarama – qarshiliklari oydin va tumanli kunlari bilan go‘zal va qiziqarli ko‘rinadi.

**O‘tirgan yeringdan boqsang chor tomon,  
Qirga tutashgandek tuyular osmon.**

**Chekinib boradi yursang ufq ham,  
Yo‘l yurgan biladi olam bepoyon.**

She’rda (aniqrog‘i, shu to‘rt misrada) shoir hayot falsafasining murakkab ekanligini ifodalashga uringan va ma’lum ma’noda uddasidan chiqqan ham.

Jahongir Ismoilovning o‘ziga xosliklaridan biri shundaki, she’rda yuritiladigan fikr oxirida falsafiy xulosa ifodalanadi. Masalan, uning “Libos tanlanadi...” she’rida qarshilantirish(tazod) san’ati mohirona ko‘llanibginpa qolmasdan, har bir bind o‘zaro xulosalanadi va ayni choqda she’r oxirida umumiyl xulosa yuzaga keltiriladi:

**Ota – ona yanglig‘ ulug‘, tengi yo‘q,  
Ota – ona yanglig‘ tanlanmas vatan.**

Oftobdan olam sahifasiga oq nurlar to‘kiladi. Odamning qalbini oftobga qiyos qiladilar shoirlar. Shu ko‘tirinki qiyosni qabul qiladigan bo‘lsak, odamning qalbidan oq qog‘ozga to‘kilgan so‘zlar shu qalbga mutlaqo o‘xhash bo‘ladi. Oftob zaminda neki bor – borini o‘z nuri, harorati, haroratining miqyosi bilan qanchalar avaylab shakllantirsa, ijodkor insonning qalbi go‘zallik va odam kamoloti uchun xizmat qiladigan so‘zni ham shunchalar e’zozlab voyaga yetkazadi. Shuning uchun qalb amri, qalb buyrug‘i degan so‘z ko‘p ishlatilganidan, bugunda ancha siyqalanib ketgan, lekin aslida ma’nosi g‘oyatda teran bo‘lgan so‘zlarni she’riyat ahli tildan qo‘ymaydi. She’r qalbning amri bilan dunyoga keladi. Qalbning amri bilan o‘zini yaxshilikning, adolatning, oljanoblikning xizmatiga bag‘ishlaydi. U shunday pokiza, o‘ziga gard yuqtirmas bir xilqatki, hamma unga intiladi, hamma undan bahra oladi, og‘ir damda ham, quvonchlar seldek toshgan chog‘larda g‘am odamlar shu xilqat huzuriga keladilar va undan o‘zlarini istagan taskin, surur, joziba, haqiqat mujdalarini totib, doim minnatdor bo‘lib yuradilar.

Bu so‘zlar umuman she’rga, umuman ijodkorlarga daxldor bo‘lish bilan bir qatorda shoir Jahongir Ismoilov she’riyatiga ham xos bir fazilatki, buni eslab o‘tish bir qadar o‘rinli deb o‘ylaymiz. Shunday va

shunga o‘xhash so‘zlar Jahongir Ismoilov she’riyatiga ixlos va xolis ko‘z bilan qaragan kishilarda ham tug‘iladi. O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasining a’zosi Samandar Vohidov Jahongir Ismoilovning sog‘inch to‘plamiga bergan taqrizida: “Jahongirning she’rlarida munavvar his va sog‘inch hissi ufurib turibdiki, bu she’rxon qalbiga latif bir entikish, go‘zal bir holat uyg‘otadi” - deb yozgan edi. Bu so‘zlardan tong shamoli yalpizlarni silkitib o‘tganda gurkirab ketgan ajib bir xushbo‘ylik keladi. Shu xushbo‘ylikni va shu zavqni ustozda shogirdning she’rda bo‘y tortib borayotgan kamoli uyg‘otgandi. Chindan ham Jahongir Ismoilov she’riyati idrokimizni sog‘inchlar sari – qadrdon qishloq sog‘inchi, qaytarilmas bolalik sog‘inchi... sari boshlaganda chuqur o‘y mushohada bilan toza tuyg‘ular qo‘zg‘aydi, yaxshilikka rag‘batlantiradi.

Jahongir Ismoilov - Buxoro adabiy muhitining farzandi. Shu bois buxoriylarga xos o‘ziga xoslikni kuylaydi:

**Buxoroning o‘z qo‘shig‘i bor,  
Obidalar kuylaydi bedor.**

**Obidalar ajib musiqa,  
Ohanglari nafis betakror.**

Haqiqatdan ham Buxoroning o‘z qo‘shig‘i bor. Bu qo‘shiqni Ibn Sinolaru Narshaxiylar, Donishlaru Fitratlardan tortib Fayzullo Xo‘jalaru Sadreddin Salim Buxoriylar kuylab kelgan.. Ammo u qo‘shiqni tinglab bilish lozim. Buning uchun nima qilish kerak?

Shoir nazdida:

**Bu qo‘shiqni tinglamoq uchun,  
Til bilmog‘ing aslo shart emas,  
Bo‘lsa faqat iymoning butun  
Go‘zallikni his etolsang, bas.**

Sharqning fasih va donishmand, hayotnavis adiblaridan biri Sa’diyning shunday bir hikoyasi bor:

Cho‘llar va sahrolardan juda uzoq yo‘l bosib suvsizlikdan, madorsizlikdan o‘lar holatga kelgan karvon aloha yam-yashil daraxtzor go‘zal bir mavzega kelib qo‘nadi. Bu yerda ming turli qushlar turli ovoz bilan sayrab, anvoyi gullar ochilib, atrini sochib yotgan ekan. Hamma darhol o‘zini suvga urib, so‘ng behollikdan ko‘zlari uyquga ketadi. Faqat bir odam chamanzorga, qushlarni odamni rom qiladigan musiqasiga berilib chamanzor oralab keza boshlaydi. Sa’diy taajjubga qolib undan so‘rabdiki, nechuk hamma uxlaydilar-u, sen sayr-tomosha orzusidasan?

U odam javob berdi: shuncha qush, shuncha gul, shuncha gulzor olamning go‘zalligiga madhiya o‘qib yotibdi. Ular madhiya o‘qigan chog‘da men – inson bolasi g‘aflatda yotaymi, yo‘q, buni o‘zimga ravo ko‘rmadim degan ekan.

She’r ahli qalam ahli mana shunday g‘aflat uyqusi begona bo‘lgan, g‘aflatni ko‘z o‘ngidan quvgan, olam go‘zalligiga oshiq hamda do‘s odamlar bo‘ladi. Ular olamning husnini qalblariga ko‘chiradilar va qalblaridagi husnni ortgan, insonlik mazmuni bilan muzayyan bo‘lgan husnu tarovatni qog‘oz sahifalariga tushiradilar. Jahongir Ismoilov ham dunyoning go‘zalligiga shaydo bo‘lib, odamiyatning shodligi va bor dardlariga sherik va hamhard bo‘lib, dunyoning jamoliga do‘s bo‘lib qo‘liga qalam olgan shoirlardan hisoblanadi.

Ko‘zgu yaraqlab, uzoqlarga aks nur yenmog‘i uchun avvalo oftob bilan betma – bet bo‘lmog‘i kerak. Oftob bilan betma-bet bo‘lgandagina, u nur kasb etadi. She’riyat ham misoli shunday ko‘zgu, u hayotga, odamzotning qalb dunyosiga to‘g‘ri bo‘lgandagina, uning betida porloq nur paydo bo‘ladi. Bizning she’riyatimiz shoirning shaxsiy qalbigagina emas, shu qalb orqali xalqning yuragiga, uning orzu-armonlari dunyosiga yashashi, mehnati, qarashlari dunyosiga to‘g‘ri bo‘lgan ajib haqqoniyo ko‘zgudir. Bizning she’riyatimiz xalq bilan hamdam, hamnafas, hamjihat, hamqadam she’riyat. Xuddi mana shu narsa she’riyatimizning iftixori, she’riyatimizning hech qachon o‘lmas fazilati bo‘lib, uning shuhratiga huxrat qo‘shmoqda. Bizning shoirlarimiz ham qaerda, nimadan iftixor qilsalar, avvalo huddi mana shu narsani faxr bilan tilga olganlar va shu narsani doimo dasturiy amal qilib kelganlar.

Jahongir Ismoilov ning ijodida ham mana shunday iftixor ruhini kuzatishimiz mumkin. Shoир qalamiga mansub quyidagi satrlarga murojaat qilaylik:

**Yurtimiz tinch, baxtimiz shu-da,  
Don to‘kindir, boshpanamiz bor.  
Ketmasang ham yuksaklab juda,  
Sen hayotdan bo‘lgin minnatdor.**

Qarang, yovuzlikni o‘zlariga niyat qilib olib xalqni qandaydir “baxt” qidirishga chorlab yo‘ldan ozdirishga harakat qilayotgan yovuz niyatlar yoki baxt qidirib sarson yurgnlarga qarata shoирning ruhiga ruhdosh yurtining tinchligi, hosilga boy dalalariyu omborlarida g‘alla xirmonlari uyum-uyum bo‘lib yotganligi, ayrim yurtlarda boshpanasiz xalqlar yurgan bir paytda shoир bopanasiz emasligi baxt, deyishi juda o‘rinli javobdir.

Shoир kuylamoqchi bo‘lgan mavzulardan biri hamisha o‘lmas va navqiron sevgi, muhabbat mavzuidir. Hazrat Navoiyning:

**Bo‘lmasa ishq, ikki jahon bo‘lmasin,  
Ikkki jahon demaki, jon bo‘lmasin.**

degan fikrlari Jahongir Ismoilov qalbiga ham ko‘chni uning ijodidan sezilib turadi.

**Mayli,quyosh monand yuksakka ko‘tar,  
Mayli,xazon bo‘lgan yaproqday ezgin.  
Faqat yashasang bas bor bo‘lsang yetar!  
Seni yo‘qotishdan qo‘rqaman, sevgim!**

Ha, muhabbat – barcha yaxshi, yuksak, qudratli, yoqimli va yorqin fazilatlar ijodkoridir. Muhabbat faoliyatga, kurasha chorlaydi. Sevgi inson qalbidagi hayotbaxsh o‘tdirki, shu tufayli odam yaratgan barcha narsalar hayot va nafosat bilan yo‘g‘rilgandir. “Sevgi mislsiz qudratga

ega: dunyoda sevgi kulfatiga yo‘liqishdan og‘irroq jazo yo‘q, undan bahramand bo‘lishdan ham ortiqroq baxt yo‘q” deydi ingliz dramaturgi V.Mekorir.

Jahongir Ismoilov mana shunday baxtni topish uchun har qanday qiynoqqa tayyorligini aytmoqchi yuqoridagi satrlarda. Shoir bu fikrining davomi sifatida yana bir she’rida:

**Har narsaga qilurman toqat,  
Meni yenga olmas hijron sog‘inch, g‘am...  
Nogahon men ado bo‘lurman, faqat  
Sevgidan mosuvo qalb bilan qolsam. -**

deya ta’kidlaydi.

Istalgan shoibu yozuvchi uchun eng asosiy mактаб hayot maktabidar. Chunki har qancha kitob o‘qib, ko‘plab ustozlar o‘gitini eshitgan bilan hayot maktabidan saboq olmas ekan, u haqiqiy ijodkor bo‘lib yetisha olmaydi. Hayotning sinovchan o‘nqir-cho‘nqirlarini anglamasdan turib ijodkor mukammal bo‘la olmaydi. J.Ismoilov ham hayotdan saboq olgan ijodkordir. Shoiring “Yillar sabog‘i” nomli turkum she’rlari borki, aynan shu fikrimiz isbotidir. To‘rt qismdan iborat she’rning o‘ziga xosligi shundaki, bu to‘rt qism umrning to‘rt davri sifatida tilga kiradi. Bu she’rda aynan ta’kidlanmagan bo‘lsa-da, badiiy mazmundan anglab olish mumkin.

1- turkum - o‘smirlilik davrida hayotni kuzatib borar ekansan, fikring teranlashib borishi do‘stga, yaqinlarga ehtiyoj sezishing aytiladi.

2- turkum - yigitlik davrida esa kishi qalbiga sevgi kirib kelishi, uning og‘riqli va shirin azoblari she’rga solinadi.

3- turkum - o‘rta yoshda o‘z ishing yuzasidan turli xil tuhmat va aldonlarga duch kelishing, shu paytda kimlargadir bosh egishga majbur bo‘lishing, jamiyatda noinsof va manfur shaxslar dastidan haqiqatga bo‘lgan ishonchingning so‘na borishi kabi hayotning yanada murakkabliklariga duch kelasan.

4- turkum - keksalik davrida yillar o‘tavergan sari fikring teran tortib boradi. Oq-qorani tanigan paytingda esa yosh bir joyga borib qoladi.

Bu she’r hayotning kichkinagina, lo‘nda va ixcham “syujeti”dir.

Jahongir Ismoilov ijodida bu mavzuga murojaat tez-tez sezilib turadi. Shoiring bunday she'rlarida kuchli og'riq, o'ksinish, dard bor. Aslini olganda she'rning o'zi dard, albatta.

Ijodkor hayotni kuylashi uchun hayot qonuniyatlarini yaxshi o'zlashtirmog'i lozim. Uning falsafiy mushohadalari teran bo'lishi kerak. Shundagina uning ijod mahsuli dialektik kategoriyalarga mos yangraydi:

**Turmush misli yo'ldir: sertashvish, olis,  
Holing bir yo'ldosh siz ayanchli abgor.  
Hamrohing qadrini etmoq uchun his,  
Nahot, yolg'izlanib qolmog'lik darkor?!**

Sertashvish va azobli turmush yo'llarini bosib o'tish uchun bir yo'ldosh bo'lmasa, kishi ahvoli abgor bo'lishi mumkin. Shoир xuddi shu taxlit turkum she'rlarini "O'ylar" deb nomlaganki, bu she'rda haqiqatdan ham ziddiyatlari hayot haqida o'ylar boradi. Har bir band – turkum oxirida "tajohuli orif" san'ati asosida ritorik so'roq gaplardan iborat xulosa kitobxonni o'ylovga, mushohadaga chorlaydi. Bu esa she'rning badiiy qimmatini tashkil qiladi.

Jahongir Ismoilov kitobxonni jalb qilish maqsadida allambalo so'zlar, ortiqcha tanbehlar qidirib yurmaydi. Oddiy, samimiylayotiy haqiqatlarni kuylaydi.

Uzoq yillik hayotiy tajriba, o'y – fikrga ega bo'lgan Jahongir Ismoilov hayotni "teatr" ga o'xshatadi.

Hayotning davom etishi teatrdaғi tomoshaning borishiga o'xshaydi: kimilardir o'z ismini yoza olmaydi lekin o'zini tutishi alloma; lagabardor roli dagilar esa ikki bo'lishi kerak; aslida do'stining g'amidan xursandlar ko'zini yoshlashga majbur... Xullas, bu she'r orqali shoир "zillat loyiga botgan" jamiyat ustidan kuladi.

**Teatr...  
Tomosha bormoqda , qarang,  
Kimda talant bo'lsa ishi yuradi...  
Talantsiz kishining holi bunda tang,**

## **U aksar sahnadan chetda turadi.**

Boylik yig‘ish uchun mansab egallahash uchun o‘ziga shunday “aktyor”likni professional darajada “kasb” qilib olganlarni “qorni to‘ysa ham, ko‘zi to‘ymas” deydi shoir boshqa she’rida va so‘zida davom etadi xalta – xalta uni bo‘lsa ham yana navbatda turadigan kishilar bor ekan, mukammal, ko‘rkam zamona qurgunimizcha qutlug‘ kurashimiz og‘ir kechaveradi. Farovon kunlarga yetishni u quyidagicha belgilaydi:

**Farovon kunlarga yetajakmiz, bas,  
O‘ylasa faqat bir o‘zini emas,  
O‘ylasa el yurtni, O‘ZBEKISTONNI!**

Uning hayratomuz yaxshiligi – odamning o‘zi ham dard bilan dunyoga keladi, odam o‘zi dard bilan tug‘ilib, bu olamning husnu tarovati bo‘lgan juda ko‘p narsalarni ham ajabmaski, dard bilan bino qiladi. Shuning uchun ham yaxshilik – chinakam ma’nodagi yaxshilik doimo dard bilan paydo bo‘ladi va dard bilan turmushda barqaror topadi. Bu dardga albatta zavqning o‘zi ham omuxta va dard bilan zavq ittifoq bo‘lishib oq-oydin yaxshilik degan bir farzandni yaratadilar.

Jahongir Ismoilovning yaxshilikka qarashlari shunday. U o‘z she’rlarida yaxshilikning dard bilan tug‘ilishini ta’kidlarkan, yaxshilik yaratmasdan, dardsiz loqayd, betashvish yashashga tarafda bo‘lgan odamlarning qarashlarini yoqlamaydi, betashvish yashadim degan kishi, yaxshisi yashamadim, deb qo‘ya qolsin, deydi . “Bir sharpa misoli umrimiz kechar, loqaydlik dardiga giriftor bo‘lib” deb yozadi shoir “Shunchaki yashayotgan odam iqrori ” she’rida. Xuddi shuningdek, do‘slik ham, do‘slikka intilish ham odamzod yuragida, azal oliv tushuncha – yaxshilikning ulug‘vor bir ko‘rinishi kabi anglanadi. Jahongir Ismoilov “Zamin huvillaydi, huvillaydi ko‘k” satri bilan boshlanadigan she’rida do‘slik haqida o‘zining sodda, yorqin, mazmundor so‘zini aytarkan.

**To‘lishib boradi sekin zamin, ko‘k,  
Hayot ranglarini ilg‘ar ko‘zlarining.  
Biroz yengillashar diling ezgan yuk,  
Shunday payt yoningda bo‘lsa do‘stlaring –**

deb, odamzod hayotining tugal ma’nosini do‘stlikda ko‘radi va uni yaxshilik, to‘liq namoyon bo‘lib ko‘ringan, yaxshilikning porloq va ziyosi o‘chmas bir nuqtasi, ijtimoiy zarurat sifatida ulug‘laydi.

“Har to‘kisda bir ayb” deganlaridek, shoirning ayrim lirik asarlarida muayyan kamchiliklar yo‘q emasligini ko‘rish mumkin. Masalan:

**Menga bir nigohing – bir olam shodlik,  
Suyanchiqdir hatto tog‘dan ham ulkan.  
Toliqsam bir nigoh tashlasang basdir,  
Basdir bu olamda borliging, erkam.**

Band a ,b,v,b tarzida qofiyalangan desak, ulkan so‘zidagi raviy (“n”)va “erkam” so‘zidagi raviy (“a”) bir-biriga ohangdosh ,o‘xshash emas. Shoirning “Sog‘inch” to‘plamidagi “Sen bo‘lmasang” she’ridagi quyidagi parchaga diqqat qilaylik:

**Yashayapman orzularning izida jo‘sib,  
Kuymانishim oydin iqbol etajak tortiq.**

Lirik qahramonning “kuymانishi” mazmuniy g‘alizlikni keltirib chiqaryapti. “Urinishim ”so‘zini ishlatganda, yaxshiroq bo‘ldi.

Bu kabi kemtikliklar shoir lirik ijodida unchalik ko‘p emas. Buning ustiga, ular asosan nozimning ilk ijodiga xos. Davr taraqqiyoti , xususan, Milliy istiqlol davri vatanparvar lirik ijodiga jo‘shqinlik, yangidan yangi turfa ranglar baxsh etdi. U hamon izlanishda. Ajoyib she’rlari bilan poeziya muxlislari dilini rom etishga harakat qilmoqda.

## NASR CHORRAHALARIDA

Jahongir Ismoilovning nasriy asarlarini janr, mavzu, obrazlar tasviriga ko‘ra o‘rgansak maqsadga muvofiq .

Birinchi jihat, ya’ni janriga ko‘ra J.Ismoilovning nasriy asarlari xilma-xil: hikoya, qissa, kichik qissa, publitsistik maqolalar, fel’eton, ocherk va hokazolar. Ayniqsa, hikoya yozuvchi nasriy ijodining asosiy qismini tashkil etadi.

Mavzu jihatidan yozuvchi nasriy asarlari real hayotning turli qirralarini yoritadi. Uning ijod xazinasida ijtimoiy-falsafiy mavzudagi, ishqiy sarguzasht, sharhi hol va hokazolar tarzidagi asarlar ham bor. Nasrdagi mavzu ko‘lami to‘g‘risida yozuvchining o‘zi shunday deydi:

“Ko‘zgu har qanday qiyofadagi o‘zida boricha o‘zida aks ettirganidek, turli janrlaridagi hujjatli va badiiy ijod namunalarida ham muayyan muhit, insonning haqiqiy ruhiy va ma’naviy dunyosi o‘z ifodasini topishi taqozo qilinadi. Ular vositasida yuksak insoniy qadriyatlar – halollik, mehnat, mehr, oqibat ulug‘lanadi. Tubanlik rivo, munofiqlik singari g‘ayriinsoniy illatlar qoralanadi. Biridan nafratlanishga, noxos xatarli girdobga tushib qolishdan saqlanishga undalsa, boshqasiga esa ergashish, ibrat olishga da’vat etiladi. Men ham ana shunday ezgu ilinjda qo‘limga qalam oldim. Unga qay darajada erishganligim kitobxonning hukmiga havola” ( J.Ismoilov Bu yog‘i qandoq bo‘larkin?.. G‘afur G‘ulom nomli adabiyot va san’at nashriyoti – Toshkent, 2002). Masalan, “Bu yog‘i qandoq bo‘larkin?.. nomli hikoyasida asrlar osha insoniyatning taraqqiyotiga, mamlakatning ravnaqi va xalqning farovonligiga g‘ov bo‘lib kelayotgan mansabparastlik, laganbardorlik, tekinxo‘r kishilar o‘rtasidagi loqaydlik, manfaatdorlik va mahalliychilik illatlari qoralanadi. Ushbu hikoyaning bosh qahramonlari – muayyan mavqega ega kimsalar. Yozuvchi ularga ramziy ma’no tashuvchi nomlar qo‘ygan: Kattakon, O‘rtaxon, Kichikxon. Hikoyada yozuvchi bunday kishilarning kamchiliklarini

ochiq-oydin tanqid qilar ekan, ularning muloqot-muomala xususiyatlariga ham e’tibor qaratgan. Mana masalan:

- Indamay yoursangiz ham, ichingizda gapingiz ko‘p-ku, – deydi O’rtaxon. Yasama jahl bilan va nasihat ohangida qo‘sib qo‘yadi. – Bu gaplarni boshqa joyda ayta ko‘rmang, tem bolee, mening shopirimsiz.

Til – millatning milliyligini belgilovchi vositalardan biri. Uni jahonga tanituvchi qurol. Dunyo Alisher Navoiyni o‘zbek tili tufayli taniydi. Shekspir ingliz lisoni tufayli jahonga mashhur. Shunday ekan, nega endi xalq orasida imtiyoz, mavqega ega shaxslar tilni buzib aytishlari kerak? Xalq ulardan o‘rnak olmaydimi? O‘zbek tilining jonkuyari J.Ismoilov hikoyada yo‘l- yo‘lakay shu jihatga ham e’tibor qaratib o‘tgan. Yozuvchi munofiq odamlarning bu kabi illatlari haqida “Men ham edim sendek...”, “Mashinasini o‘g‘irlatgan domla”, “Sirligi qolmagan sir”, “Ota –onalar majlisi” kabi hayotiy hangomalarida ham to‘xtalgan.

Jahongir Ismoilovni XIX asr oxiri - XX boshlarida boshlangan jadidchilik g‘oyalarning davomchisi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. “Mashinasini o‘g‘irlatgan domla” “Ota-onalar majlisi ”, “O‘g‘lim muallim bo‘larmish” hikoyalarida ilgari surilgan g‘oya va fikrlar buning yaqqol dalilidir.

Ma’lumki, tarbiya oiladan boshlanadi. Bolaning qobil yoki noqobil bo‘lishi ham oila muhiti, tarbiyaga bog‘liq. Aksariyat ota - onalarimiz bola tarbiyasini bog‘cha, maktab muallimlariga tashlab qo‘yishadi. Agar bola biror nojo‘ya harakat qilib qo‘ysa, ularni ayplashadi. Anglashmaydiki, birinchi va asosiy tarbiyachi o‘zları. Dono xalqimiz “Qush inida ko‘rganini qiladi” deb bejiz aytmagan. J.Ismoilovning “O‘g‘lim muallim bo‘larmish” hikoyasida ota-onalar bolalarning kasb tanlashdagi xohish, istaklarini inobatga olmasliklari, o‘zi qiziqmagan kasbga yo‘naltirishlari kabi ijtimoiy kamchiliklar yoritilgan. Yozuvchi ta’kidlaydiki, jamiyatdagi ayrim nosozliklar ham shundan kelib chiqadi, ya’ni o‘zi qiziqmagan kasbni tanlagan bola ishdagi mas’uliyatni his qilmaydi. Yangilikka intiluvchanlik, kashfiyotchilik qobiliyati susayadi. Kasbiga, jumladan, atrofdagilariga va kasbdoshlariga befarq bo‘ladi. Shuningdek, ushbu hikoyada ota obrazi orqali xudbinlik, shaxs

manfaatini xalq manfaatidan ustun qo‘yish kabi illatlar ham yoritilgan. Ya’ni ota muallim bo‘lishni orzu qilgan o‘g‘lini bu yo‘ldvn qaytarib, tergovchi yoki moliya xodimi qilmoqchi bo‘ladi. Chunki uning nazarida muallim ko‘p aziyat chekadi, asabiylashadi-yu, oladigan oyligi qornini to‘yg‘azishiga zo‘rg‘a yetadi. Tergovchi yoki moliya xodimining esa yegani oldida, yemagani...

Xullas, biror idora yoki tashkilotni taftish qilsa, mingta kamchilik topiladi. Fosh etsang rahbarlar qamalib ketishdan qo‘rqib oldingga hamma narsani muhayyo qiladi. Ro‘zg‘oring but, kissang “quruqdan to‘la”. Qaerdagi tashvishi ko‘p-u, haqqi oz muallimlikni tanlab yuradimi? Ana bugungi kundagi ayrim otalarning fikrlashishi. Hamma ushbu qahramonimizdek shaxsiy manfaatlar va moddiy ehtiyojlarini ma’naviy talablarida ustun qo‘ysa, moddiy olamni birlamchi deb bilsa, unda ma’naviyat, qadriyat, udum, ta’lim tarbiya degan fazilatlar qaerga qolib ketadi?

Cho‘lpon, Qodiriy, Avloniy kabi jadidlarni eslang. Ular ham shu fikrlarni ilgari surmaganmidilar. A.Fitrat tarbiyaning asosi oila, ota-onalar demaganmidi? Endi ota-onalarimizning o‘zlari tarbiyaga muhtoj bo‘lsalar nima qilish kerak? Bular J.Ismoilov qalbini tirnagan og‘riqli nuqtalardir.

Farzand uchun ota-onalarin birinchi tarbiyachi bo‘lsa, o‘qituvchi ikkinchi tarbiyachidir. “Ota-onalar majlisi”, “Mashinasini o‘g‘irlatgan domla” hangomalarida oramizdagi ayrim o‘qituvchilarining o‘z kasbini suiiste’mol qilishi, muallimlik sha’niga dog‘ tushirishlari qoralanadi. Yozuvchi ularni achchiq kulgi ostiga oladi. Ayniqsa, “Mashinasini o‘g‘irlatgan domla ” hikoyasida universitet domlesi yotoqxonada o‘z talabalari bilan aroqxo‘rlik qilishi, mast holda mashinasini universitetda unutib qoldirishi, ertasi kuni mashinasini topolmay militsiyaga xabar berishi, gumonsirab kasbdoshlari yoki bahosini qo‘yib bermagan talabalardan ko‘rishi, ammo universitetga borib o‘z mashinasini ko‘rib hayron qolishi va o‘sha kuni mast holda unutib qoldirganini xotirlashi kabi voqealar tasvirlangan. Yozuvchi ushbu hikoyada kimsan oliy dargoh - universitetda ta’lim beradigan domla yuqorida eslagani kabi illatlarga, axloqsizliklarga amal qilib yurgan bo‘lsa, undan ta’lim

oladigan talabalardan kelajakda nima kutishimiz mumkin? Afsuski, atrofimizdagi shunaqa tarbiyaga muhtoj tarbiyachilar ham bor. J.Ismoilov yuqoridagi kabi xilma-xil mavzularni qissalarida ham yoritgan. Masalan, uning “Ko‘rgazmali kengash” qissasida insonga xos bo‘lgan loqaytlik, xudbinlik qoralanib, dunyoni suv bossaa to‘pig‘iga chiqmaydigan odamlar kulgi ostiga olinadi.

Yozuvchi nasriy asarlarida, ayniqsa, hikoyalarida obrazlar ramziylik ifoda etib ma’lum bir ma’noni tashishga xizmat qiladi. Aniqroq qilib aytadigan bo‘lsak, obrazlarning nomlanishi asar g‘oyasiga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Masalan, uning “Buyog‘i qandoq bo‘larkan?...” nomli hikoyasida asosiy obrazlar Kattakon, O‘rtakon, Kichikkon deb nomlanadi va bu asarning asosiy g‘oyasi manfaatparast kimsalarning manfur qiyofasini ochib berishga xizmat qiladi. Ayni paytda yozuvchi qahramonlarni bunday nomlab, ular ustidan kuladi ham. Yoki “Mashinasini yo‘qotgan domla” hikoyasini olib qaraylik. Domlaning familyasi O‘ljaev, uning shogirdi, aniqrog‘i, mo‘maygina pul evaziga bir vaqtlar o‘qishga kiritib qo‘ygan, imtihon va sinovlarda tirkovuch bo‘lib suyagan, o‘qishni bitirguncha panohida olib yurgan o‘quvchisining nomi – Izbosarov. Bu bejiz emas. Domla qancha-qancha talabalardan baho evaziga pul olgan, qancha-qancha talabalarni o‘qishga kirgizgan (albatta, pul bilan). Uning shogirdi-chi..? shunday poraxo‘r o‘qituvchidan ta’lim olganidan so‘ng ustozining izidan boradi-da. Bu J.Ismoilovning o‘ziga xos uslubi: qahramonlarning xarakter – xususiyatlari va asarning g‘oyasiga qarab ularga nom tanlash.

J.Ismoilov nasriy asarlarining yutuqlari talaygina. Ularning ayrimlari haqida to‘xtalib o‘tdik. Yozuvchining yana bir o‘ziga xos bo‘lgan yutug‘i shundaki, qahramonlarini atrofimizdan qidiradi. Ular biz bilan bir makonda yashaydi, birga nafas oladi.

Hikoya – inson hayotidagi u yoxud bu yorqin hodisani; ijtimoiy yoxud psixologik konfliktni xarakter bilan uzviy bog‘liq holda rivoyaviy usulda tasvirlovchi kichik epik asar. Bu asar odatda kishi hayotidagi g‘oyatda muhim voqeа tasviriga bag‘ishlanadi va unda shu voqeaga qadar va undan so‘ng ro‘y beradigan voqealar batafsil bayon qilinmaydi. Hikoya muayyan vaziyatdagi kishi hayotining bir parchasi.

“Hikoya nihoyatda chuqur asrlar davomida unutish mumkin bo‘lmagan hayot haqiqatini shunday o‘zida mujassamlashtirgan bo‘ladi. Hikoya so‘zsiz qandaydir muhim faktning tasviridan iborat, - deydi Dominikan yozuvchisi Xuan Bosi, – Agar hikoya asosida yotgan hodisa arzimas bir narsa bo‘lsa, uning ifodasi hikoya emas, shunchaki bir lavha bo‘lib o‘tgan voqeanning bayoni bo‘lib qolaveradi.”

Ushbu mulohaza kichik epik janrda qalam tebratadigan har bir ijodkor, shu jumladan, J.Ismoilov hikoyalariga ham taalluqli. Jahon novellanavisligi taraqqiyotida yorqin iz qoldirgan buyuk ijodkorlar – Mopassan, A.Chexov, J. London, xususan, o‘zbek adabiyotidagi hikoya ustalari A.Qodiriy, A.Qahhor, S. Ahmad, Sh. Xolmirzaev nasriy merosidagi durdonalarni o‘qib-o‘rgangan Jahongir Ismoilov o‘zining kichik nasriy yaratmalarida bir lavha yoki voqeа orqali qahramon tabiat, ruhiyatini ishonchli va ta’sirchan ravishda berishga harakat qiladi va aksariyat g‘ollarda bunday qiyin, mas’uliyali vazifani uddalashga erishadi. Bunday xususiyatni, ayniqsa, uning so‘nggi yillarda yozilgan hikoyalarida yaqqol ko‘rish mumkin.

Insoniyat, xususan, o‘zbek milliy mentalitetida kulgining o‘rni, ahamiyati beqiyos. Beg‘araz kulgi yoxud zaharxanda yordamida insonga baho berilib, munosabat bildiriladi. Kulgi ruhi bilan yo‘g‘rilgan asarlar sevib o‘qiladi, ularning mualliflarini xalq qadrlaydi. G‘afur G‘ulom, Said Ahmad, Ne’mat Aminovning satirik, humoristik asarlarini eslaylik. Hanuzgacha ular odamllarning qo‘lidan tushmaydi, hayotga, keljakka nekbinlik bilan qarashga chorlaydi. Shu boisdan bo‘lsa kerak, xalq ruhiga hamohang asarlar yozishga bel bog‘lagan Jahongir Ismoilov o‘z qissa hamda hikoyalarini samimiy, xushchaqchaq, ba’zan fosh qiluqchi, achchiq kulgi “obi hayoti” bilan sug‘orishga alohida ahamiyat berib kelmoqda. Muallifning bir qator kichik qancha kichik nasriy asarlari “hayotiy hangoma” deb atalishining sababi ham ana shunda deb o‘ylaymiz.

Ma’lumki, badiiy adabiyotimizda hangoma ruhida yozilgan asarlar talaygina. Muqimiyning “Tanobchilar”, E.Vohidovning “Qiziquvchan Matmusa” asarlari shular jumlasidandir. Bu asarlardagi qaxramonlar garchi sodda, kitobxonga kulgi uyg‘otuvchi bo‘lsalar-da, xalqning

buyuk dardini yelkalariga ortib olganlar. Adib J.Ismoilov ham o‘zining bir necha hikoyalarini “hayotiy hangomalar” deb baholagan.

Jamiyat taraqqiyotida rahbarlar - lavozimli shaxslar alohida o‘rin egallaydi. Xalqning, jamiyatning bahosi ham shularga qarab belgilanadi. XII asrdayoq bobomiz Yusuf Xos Xajib bejiz aytmagan: xalq misoli suruv, beklar esa qo‘ychivon. Qo‘ychivon qanchalik aqli, bilimdon, adolatli bo‘lsa, xalq ham ravnaq topadi, farovon hayot kechiradi.

J.Ismoilovning aksariyat hikoyalarida sho‘ro davrining “qo‘ychivon”lari ustidan kulish yaqqol sezilib turadi. “Bu yog‘i qandoq bo‘larkin?” hikoyasi bu fikrning aniq isbotidir.

Hikoyaning hech o‘rnida muallif bunday salbiy qahramonlar tomonga yon bosmaydi, aksincha, ularning barcha jamiyat belgilab qonun-qoidalariga to‘g‘ri kelmaydigan xatti-harakatlarini ochib tashlaydi. Ha-da, rahbarlarning o‘zлari DAN talablariga amal qilmasa, xalq mehnati hisobidan huda-behuda dasturxonlar yozilib, ziyofatlar tashkil qilaversa, bu hisobdan ro‘zg‘ori ham but bo‘lib tursa, taraqqiyot, madaniyat, sivilizatsiya degan narsalar nima bo‘ladi? Keljak nima bo‘ladi? Ana qaerda adib qalbini tirnagan nuqtalar.

Buning ustiga sobiq (sho‘roviy) “qo‘ychivon”larning xulq-atvori, madaniy saviyasi ham aytarli emas edi. Nutqida nuqsonlar g‘ij-g‘ij, qarindosh-urug‘lari tugul o‘z ota-onasi holidan xabar olmaydigan, oilasi, bolalarini o‘ylamay, ko‘ngilxushlik ilinjida noshar‘iy harakatlar qiladigan shaxslar tepamizda boshliq bo‘lgan. Bu adibning yurak ohlari eli.

Adib hikoyalarida jamiyatning tayanch ustunlaridan bo‘lgan yana bir toifaga alohida e’tibor qaratgan. Bu xalqni ma’rifatga boshlovchi domlalar, muallimlar toifasi: Ammo, afsuski, atrofimizda hali o‘zi ma’rifatga muhtoj domlalarimiz talaygina. “Mashinasini o‘g‘irlatgan domla” hikoyasining kaxramoni ana shunday “ma’rifat gado”laridandir. Kimsan, domla O‘ljaev. Ismi jismiga mos: O‘ljaev. Muallif nima uchun bunday nomlagan bo‘lsa kerak? Tushungandirsiz? Buning ustiga u badgumon ham. Mashinasini o‘zi mast holda universitetda qoldirib talabalardan, domlalardan gumon qiladi. Bu haqiqiy ma’rifatli o‘qituvchiga xos xislatmi? Adib bejiz yonib kuymaydi. Domlalar,

muallimlar butun millatning tafakuri, ma’naviyatini boshqaradi. Millat kelajagi shularning qo‘lida. O‘zlari ma’rifatga muhtoj domlalarimiz ming-minglab yoshlарimizни jamiyatimiz uchun keraksiz shaxslar qilib yetishtirishsa... O‘ljaevning shogirdi Izbosarov buning tipik misoli emasmi?

Iste’dodli yozuvchi J. Ismoilov nasriy ijodi taraqqiyotini aniq-ravshan ko‘rsatuvchi kitobi 2007 yilda poytaxtimizdagi “Voris-nashriyot”da chop etilgan “So‘nggi manzil” majmuasi bo‘ldi. Qissa, pamflet hajviy va hayotiy hangomalardan tashkil topgan mazkur to‘plam adibning nasr sohasidagi mashaqqatli mehnati va malakasidan aniq dalolat beradi. Sifatli qog‘ozda bosilib, nafis dizaynda ishlangan bu salmoqli kitob nafaqat poligrafik jihatdan, avvalambor, badiiy mazmuni, axloqiy-estetik qimmati bilan kitobxonga manzur bo‘ladi.

To‘plamga bir qissa(“So‘nggi manzil”), uchta pamflet(Bashorat”, “Yebto‘ymas boboning nayranglari”, “Iloji bo‘lsa, kitob chiqaring”), beshta hayotiy hangoma(“Harom o‘lgan qo‘ylar”, “Tarozi”, “Sotilmaydigan odam”, “Qilsa bo‘lar ekan-ku”, “Esiz, anomomkalar”) kiritilgan. Albatta, gap bu yirik majmuaning salmog‘i – hajmida emas. Bu kitob birinchi galda serqirra ijodkorning nosir – epik tasvir sohibi sifatida rivojlanib – pishib-yetilib borayotganligini yorqin ko‘rsatib turibdi.

“So‘nggi manzil” qissasida yaqin o‘tmish - sobiq sho‘ro zamonasidagi nopol amaldorlarning turli-tuman qilmishlari ba’zan fojiaviy, ba’zan kulgili tarzda ko‘rsatilgan. Sadriddin Salim Buxoriy va Samad Azimov “Ikki qissa saboqlari” deb nomlangan taqrizlarida ushbu asar “qahramonlari” haqida shunday yozganlar: “Sho‘rolar zamonidagi aksariyat rahbarlar o‘zgalar nazarida jonini jabborga berib, el uchun mehnat qilayotganday, ishdan boshqa narsani o‘ylamayotganday taassurot qoldirsalar ham, halollik, fidoiylik, inson qadri haqida to‘lib-toshib gapirsalar ham, aslida barcha xatti-harakatlari zamirida shaxsiy manfaat yotarkan. Qissada kolxozlarda olib borilgan ko‘zbo‘yamachiliklar, mehnatkash xalqning haq-huquqini poymol qilish lavhalari ham adibga xos sinchkovlik bilan badiiy talqin qilingan”.

Bu mulohazalardandan ma'lum bo'ladiki, qissanavis bosh qahramon - To'xtasin Norquvovichning qilmishlarini fosh qilish uchungina qo'liga qalam olmagan. Uning asosiy muddaosi insoniyat tarixida qora dog' bo'lib qolgan mash'um sho'ro tuzumining mohiyatini haqqoniy gavdalantirish edi. Bashoratgo'y Nostradamus ahli basharga balo keltirgan sho'ro rahnamolarini "tartarlar"( vahshiy kimsalar) deb atagan . Qissada mana shunday yovuz kishilarning g'ayriaxloqiy faoliyati , ularning mehnatkash omma boshiga solgan falokatlari badiiy gavdalantirilgan.

Aslida asardagi markaziy obraz - To'xtasin Norqulovich tug'ma muttaham, yaramas odam emas. U oddiy, mehnatkash odamlar xonadonida tavallud topgan. Xaqgo'y va halol, cho'rtkesar tog'asi qo'lida tarbiyalangan. Bolalik va talabalik yillarida to'g'ri yashab, ishlab el-ulus orasida obro'-e'tibor qozonishni orzu qiladi. Ish faoliyatining ibtidosida vijdonan ishlab odamlarning tahsini, hurmatiga erishadi. Aynan shu xislatlari tufayli orsida "suyanch tog'lari" bo'lmasa-da amal pog'onalaridan yuksalib boradi, kattakon, mo'tabar idoraning boshlig'i darajasigacha yetishadi. Yuqori martabaga erishsa -da, darrov oyog'i yerdan uzilib ketmaydi. Nohaq qamalgan hamqishlog'i Said boboni himoya qilib ozod bo'lishiga yordam beradi. Garchi bu ishni tog'asining qistovi bilan qilsa-da, ushbu amal unda hali ozmi-ko'pmi odamiylik xislati borligidan nishonadir.

Nopoklik va manfaatga asoslangan tizim asta-sekin uni o'z girdobiga torta boshlaydi. Vijdonli va to'g'riso'z rahbarlarning badnom bo'layotgani, mansabdan haydalib qamalayotganini ko'rgach, zamonga moslashadi, poraxo'rlik, munofiqlikka o'rganadi. Tamagir kimsaga aylanib boylikka ruju qo'yadi. Xizmat kursisini boy bermaslik uchun ig'vo, tuhmat va qalloblikdan ham toymaydi.

Xo'sh, bunday ma'naiy -axloqiy yemrilish(deformatsiya)ga kim aybdor? Albatta, yolg'on mafkura, axloqiy betayinlik, dahriylik dunyoqarashi deb javob beramiz. Lekin oxiratda har bir banda qilmishlari uchun o'zi javob beradi-ku. Demak, ma'naviy tanazzulda har bir odamning aybi, hissasi bor. "So'nggi manzil" qissasi

qahramonida mustaqim imon, buyuk ishonch tuyg‘usi sobit bo‘lganda edi, hayotining oxirgi bosqichida afsus-nadomatlar girdobiga g‘arq bg‘lmas edi. Axir, o‘sha munofiqlik tantanasi yillarida ham o‘zligini asray olgan, e’tiqod va jaholat chorrahasiga kelganda, birinchi – haq yo‘lni tanlagan insonlar ham bo‘lgan-ku. Ular mansab, soxta mavqeni emas, HAQIQAT so‘qmog‘ini tanlaganlar.

Izlanuvchan va ziyrak yozuvchi sobiq sho‘ro davri DAN( davlat avtomobil nazorati) xoimlarining ijtimoiy shart-sharoit yuzaga keltirgan qilmishlarini satirik-yumoristik yo‘sinda tasvirlovchi yirik hajmdagi “Toshboy GAI hangomalari” nasriy asarni yozib nashr ettirdi(“Buxoro” nashriyoti, 2008 yil). Ushbu asar yozuvchi ijodi tadrijiy taraqqiyotini yorqin ko‘rsatishi bilan alohida ahamiyatga molik. Mazkur hangomalarda muallifning obraz yaratish mahoroti oshib, hayotni aniq epik manzaralarda ko‘rsatish uslubi shakllanganini yaqqol ko‘rsatib turibdi. Risolamizning hajmidan kelib chiqib uni mufassal talqiq qilish imqoniyatiga ega emasmiz. O‘ylaymizki, bu qiziqarli asar adabiy tanqid va adabiyotshunoslik vakillari tomonidan atroflicha tahlil va tadqiq etiladi.

## **ELPARVAR PUBLITSIST**

Bugungi kunda “to‘rtinchi xokimiyat” deb e’tirof etilayotgan ommaviy axborot vositalarining mavqeい tobora ortib bormoqda. Buning bir sababi fan-texnikaning taraqqiy etganligi bo‘lsa, yana biri jurnalistlarning xam faoliyati rivojlanayotganligida, albatta.

O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan jurnalist, Buxoro viloyat jurnalistlar ijodiy uyushmasi rahbari J.Ismoilov o‘z ustida tinim bilmay ishlovchi, bugungi kunda nazardan chetda qolayotgan ijtimoiy hayot muammolarini birinchilar qatorida chuqur o‘y-mushohada bilan anglovchi ijodkordir. U 1975 yil ToshDU (hozirgi O‘zbekiston milliy universiteti)ni tugatgandan buyon, mana 30 yildan oshibdiki, u bu sohada tolmay mehnat qilib kelmokda. Tolmas publitsist nafaqat Buxoro viloyat matbuotidagi, balki Respublika miqyosidagi chiqishlari bilan mamlakatimiz jurnalistlari orasidan munosib o‘rin topa olgan.

Uning jurnalistik faoliyati serqirraligi, uslubining o‘ziga xosligi, o‘qimishliliqi nuqtai nazaridan ijodining boshqa sohalardan ortiq bo‘lsa ortiqki, aslo kam emas. Ijodkor anchagina hozirjavob, zamonga hamnafas o‘tkir publitsistik maqolalar muallifidir. Teran fikrlovchi jurnalist faoliyatida qishloq xo‘jaligidan tortib Vatan mavzusiga, bolalik, yoshlik zavqlaridan tortib siyosiy jarayonlargacha, tibbiyot sohasidan tortib xalq ma’naviyatigacha bo‘lgan ijtimoiy hayot jabhalariga munosabat bildiriladi. Jumladan, uning “Bir og‘iz shirin so‘z” maqolasi (“Oila va jamiyat” 2004 yil 16 iyun)da turmush tashvishlarini yengish uchun jahl emas, muloyimlik qo‘l kelishi moxirona ochib beriladi. Maqolaning “Bo‘lib o‘tgan va o‘zi ko‘rib chiqqan bu voqeani suda

tanishim gapirib bergandi”, jumlesi bilan boshlanishi hayotiy voqeasosida yozilganligiga ishora.

Turmush tashvishlari, erining bo‘lar-bo‘lmasga kamsitishlaridan ruhan siqilgan xotin eri bilan bo‘lgan tortishuvdan so‘ng o‘ziga olov beradi. Er nima qilarini bilmay qotib qoladi. Shu o‘rinda er-xotining ichki monologini yaratishda jurnalist mahorati ko‘rinadi.

Xalqona uslubda yozilgan bu maqolaning mazmuni o‘rni bilan tanlangan epigrafdan anglashilib turadi.

Farzandlar tirik yetim bo‘lib qoldi. Ayol fikridan qaytsa, eri oldida beburdga chiqadi, u qadr-qimmatini battar oyoq osti qiladi. Balki ayol ro‘parasida masxaraomuz, yuragi toshga aylangancha tikilgan nigoh egasidan o‘ziga nisbatan jinday mehr-shafqatni, bir og‘iz iliq kalomni, birga kechgan hayoti, bola-chaqasi, ro‘zg‘ori haqqi-hurmati: “Qo‘y, o‘t qo‘yma”, deyishini, yupatishini kutgandir, deya javobsiz so‘roqni gazetxon diqqatiga qo‘yadi va o‘lim oldidan hayotdan to‘yib o‘z joniga qasd qilayotgan insonda kechadigan o‘y-xayollarni ta’sirchan berishga harakat qiladi. Hayot-mamotni o‘rtaga qo‘yib taqdiri qo‘shilgan, jismi, erku ixtiyorini baxshida etgan shu hissiz, qalbi so‘qir banda ko‘nglida o‘ziga nisbatan loaqla zarragina mehr-shafqat bog‘lanishga umid bog‘lagandir? Eng so‘nggi chorani qo‘llash oldidan yostiqdoshiga insof berishini tilab, Yaratganga iltijo qilgandir?”

“Jonu jahoni o‘tda qovrilayotgan, jahannam azobida qiynalayotgan shu lahzalarda uning ko‘nglidan qanday o‘ylar kechdiykin? Yana qanday gaplar bo‘g‘zida aytilmay koldiykin? Nimalar, kimlar ko‘z o‘ngidan o‘tdiykin?- deb o‘quvchini o‘ylashga chorlaydi. Jurnalist o‘zining o‘y –fikrlari bilan o‘rtoqlashadi. – Balki, o‘ziga o‘t qo‘yganidan pushaymon bo‘lgandir! Ojizlik qilgani, burgaga achchiq qilib ko‘rpa kuydirib, tuzatib bo‘lmas xatoga yo‘l qo‘yganini anglab yetgandir. Ko‘z o‘ngida bir - biridan shirin, hozirga qadar bu yorug‘ olamda uni yashashga, hamma narsaga bardosh berishga undab turuvchi yolg‘iz tayanchlari, mehribonlari, ilinjlari, umidlari – farzandlari namoyon bo‘lgandir? Endi ular qanday yashashlarini, kimga suyanishlarini, qay siynaga onajon, deya bosh qo‘yishlarini, erkalanishlarini o‘ylab qiynalgandir? Iltijolar qilib onalik haqqi -

hurmatlarini o‘rtaga qo‘yib endi farzandalarini panohida asrashni, yaxshiliklarini darig‘ tutmasligi, begona, bemehrlarga muhtoj qilmasligini tilab, Yaratganga topshirgandir? O‘zi ko‘rolmagan, armon bo‘lgan yaxshi kunlarni ortidan qolayotgan surriyodlariga berishini tilab Yaratganga sig‘ingandir?”

E’tibor berib qaralsa, jurnalist bu ichki tasvirni ritorik so‘roq asosida qura turib, johillik tufayli bir - birini rad etsa-da, qalban bir - birini istayotgan er-xotinni tasvirlagan.

Maqolaning teng yarmini jurnalist xulosasi tashkil etadi. Erning pushaymon yeyishi endi befoyda ekanligini ta’kidlash bilan boshlangan xulosada jurnalistning shoirlik mahoratidan darak beruvchi “Bir og‘iz shirin so‘z...” she’ri keltiriladi.

**Shunday ham yelkada tashvishlar behad,  
Farzandlarmiz: o‘ylaymiz zamin, zamonni.  
Do‘stim, qizg‘anmaylik duch kelsak faqat,  
Loaqal bir og‘iz shirin kalomni.**

Jurnalist voqeaga xolis munosabatda bo‘lgan. Dastlab erdan o‘tgan qo‘rslik, pisanda qilish, shirin so‘zni qizg‘anish kabi kamchiliklarni aytib o‘tsa, so‘ng “hayotda erni er o‘rnida ko‘rmaydigan, qaynona-qaynota hurmatini bilmaydigan, yo‘q joydan ham janjal chiqarib uyni boshiga ko‘taradigan, nafaqat turmush o‘rtog‘i, balki qo‘ni-qo‘shnilarni ham dodga keltiradigan ayollar ham yo‘q emas”ligini aytadi.

Tillaridan zahar tomgan, og‘ziga kelgan gapni o‘ylamay-netmay aytmasdan qo‘ymaydigan bu taqlit ayollar haqiqatdan ham ayrim o‘ta noxush hodisalarining yuz berishiga sabab bo‘layotganlariga ham turmushda misollar uchraydi.

“Iison har qanday holda ham jahl, hissiyotlarga emas, aql-idrok, irodaga tayanishi, mushkulini hal etish chorasini topishi, qiyinchiliklarni yengib o‘ta olishi zarur. Qolaversa, jamiyat va shariat qonun-tartiblariga binoan ham o‘z joniga qasd qilish mumkin emas” degan fikrlari bilan yordamlashadi muallif xulosa chiqarishga urinayotgan mushtariyga.

Maqola sodda va ravon uslubda yozilgan. Jurnalist burgaga achchiq qilib ko‘rpa kuydirib, “qay siynaga, onajon, deya bosh qo‘yishlari...” kabi iboralar orqali fikrining ta’sirchan chiqishiga erishgan.

J.Ismoilovning yana bir maqolasi quyidagi egigraf bilan boshlangan: “Buxoroda tog‘ yo‘q, deb kim aytadi?!

Buxoroda tog‘ bor!

Bu –Buxoro paxtakori yaratgan tog‘!” degan “(Buxoronoma”, 2005 yil, -81-82 - sonlar).

Asar yozishgina emas, balki unga munosib nom qo‘yish ham ijodkorning badiiy mahoratini belgilaydi.

Jurnalistning bu maqolasining sarlavhasi ham gazetaga ko‘z yogurtirib chiqayotgan mushtariyni maqolani to‘liq o‘qishga undaydi.

Buxoro paxtakorining tog‘ yaratishi oson kechmaydi. “Buxoroning jazirama issig‘i, izg‘irin cho‘l shamollari, ekin maydonlarining har yili uch marotabalab sho‘rini yuvishga to‘g‘ri kelishini inobatga oladigan bo‘lsak, viloyat dehqonlarining har kungi mehnati chinakam matonat, izlanish va omilkorlik namunasi, deb baholasa, arziydi, albatta” degan edi Prezidentimiz A.Karimov o‘zining “Buxoro viloyati paxtakorlari va barcha mexnatkashlariga” “Paxta-2005” hosili uchun yo‘llagan tabrigida.

J.Ismoilovning maqolasi ham shu fikrlarga hamohang tarzda boshlangan: “Tasavvur qiling: terim boshlangandan buyon viloyatimizning katta-kichik yo‘llarida harakat qilayotgan behisob tirkamalarda tashilayotgan paxta, o‘nlab qabul maskanlarida bo‘y cho‘zgan buntlar bir yerga jamlansa, yagona xirmon yaratilsa. Salmog‘i 360000 tonnadan ortiqroq xirmon. Ayting-chi, uning bo‘y-basti, qaysi tog‘dan kam?! Uning samolarga tutash haybati qaerlardan ko‘zga tashlanmaydi!” Shunday ko‘tarinki ruh, tantanavor so‘zlar bilan Buxoro paxtakorlarining olqishlarga sazovorligini ta’kidlamoqchi bo‘lgan muallif endi yanada mushtariyni o‘ziga jalb qilib, asarning o‘qimishlilik darajasini oshiradi, gazetxon yana o‘qishga sho‘ng‘iydi.

Maqolaning keyingi qismida aytilayotgan fikr yanada kuchaytiriladi: “... bu tog‘ning yuksalishiga viloyatning birinchi

rahbaridan tortib, dexqonlikka, hosil taqdiriga bog‘liq barchaning, qiyin, dolzarb, g‘animat, dalalar chamandek ochilgan damlarda ko‘makka otlangan talaba-yu tashkilot xodimi va korxonalar ishchilariga, qalb amriga bo‘ysunib beliga etak tutgan otaxonu onaxonlargacha ulushi bor “.

Maqola borgan sari umumiylidkan aniqlikka tomon boradi: avval qalb tug‘yonlari qalamga olingan bo‘lsa, endi faktlar va ma’lumotlarga tayaniladi: Dastlab tumanlar: “... shartnoma rejasini bajargan Vobkent, Romitan, Shofirkon, Buxoro, Peshku, Qorako‘l, shuningdek, G‘ijduvon, Jondor va boshqa tumanlar mehnatkashlari...”, paxta bo‘yicha yetuk mutaxassislar: “...O‘zbekiston qaxramonlari Hazrat Obloqulov, Azim Latipov singari paxta ilmining akademiklari...”, ilg‘or shirkat xo‘jaliklari: “gektaridan 45-50 sentnerdan hosil olayotgan Vobkent tumanidagi Xayrulla Kamolov nomli va Zarafshon, Shofirkon tumanidagi Bobur nomli va “O‘zbekiston” , Peshku tumanidagi “Madaniyat” va Ibn Sino nomli, Buxoro tumanidagi “Madaniyat” ....” sanab o‘tiladi: so‘ng bugungi mulkchilikning samarali ko‘rinishiga aylanib borayotgan fermer xo‘jaliklari ulushi samarali ekanligi - hosilning 64 % i ularning yelkasiga tushganligi aytib o‘tiladi. Shundan so‘ng jurnalist boshqa sohalarga ham diqqatni qaratadi. Jumladan, g‘allalikda ham Buxoro viloyati birinchi ekanligi ta’kidlanib, xayotning boshqa jabhalari - “ta’lim, qurilish, obodonlashtirish muqaddas qadamjolar, tarixiy obidalarga yangidan umr bag‘ishlash ” singari sohalarda ham viloyat Respublikada peshqadamlar safida ekanligi esga olinadi. Maqola jurnalistning qishloq xo‘jaligi sohasida ham chuqr dunyoqarashga ega ekanligidan dalolat beradi.

“Ma’rifatli xalqlarning haqiqiy jasorati yo‘lida qurban bo‘lishga hozir ekanliklarida aks etadi” degan edi Gegel. Chindan ham vatan muqaddas, vatan abadiy!

J.Ismoilovning jurnalistik faoliyatini yuritar ekanmiz, u murojaat etadigan bosh mavzulardan biri vatan mavzusi, deya ta’kidlashni ma’qul ko‘rdik. Uning “Qishloq hayoti” gazetasida bosh maqola sifatida chop etilgan (2004 yil, 88-son) “Vatan tuyg‘usi” maqolasi orqali fikrimizni oydinlashtirishga harakat qilamiz.

Ona - farzandlari uchun dunyodagi yagona zot. O'xshashi, tengi yo'q. Shu zotni vatanga qiyoslashadi. Bu bejiz emas. Dunyoga kelgan go'dakning kindik qoni to'kilgan tuproq, yalang'och vujudi ilk bor o'ralgan yo'rgak, ilk bor tuygan hovir, harorat, o'sib-ulg'ayishi uchun bisotini ayamagan, kamolotiga ko'z tikkan, umid qilgan, mehr kutgan ma'vo..." deya boshlanadi maqola. Shundan so'ng ikki ifoda: ona va vatanning yonma-yon ko'llanilish sabablari publisistik uslubda ochib beriladi. Vatan ifodasining naqadar kengligi, ulug'vor, poyonsizligi ta'kidlanadi.

"Vatanning muqaddasligi, betimsolligi, buyukligi to'g'risidagi biri boshqasidan sermazmun, ta'sirchan rivoyatlar qancha! Qanchadan qancha hadislar aytilgan. Lekin hech kim uning mukammal izohini aytolgan emas. Zero, buning imkonini ham yo'q" deydi teran mushohada bilan jurnalist. Haqiqatdan ham Vatanning jozibasi, qadrini ohanglarda to'la sig'dirib, so'z bilan mukammal ifodalab, bo'yoqlarda boricha tasvirlashning aslo iloji yo'q.

Jurnalist – adabiyotchi ham bo'lmos'i lozim. U o'zining dunyoqarashi, o'y-fikrlarini badiiy adabiyot vositasida teranlashtirib boradi. J.Ismoilovga ham adabiyot bilan hamnafaslik, she'riyat bilan oshuftalik qo'l kelganini ko'ramiz. U Vatan mavzusidagi fikrini dadillash maqsadida she'riy parchalar keltiradi. Avvalo, hazrat Navoiydan: "G'urbatda g'arib..." ruboysi keltirilib, mushohada davom ettiriladi: "Naqadar teran, yorqin betakror ifoda. Ta'bir joiz bo'lsa, har qanday to'kis shart – sharoit bo'lmasin, ona-Vatan qadr – qimmati, bebaholigi, unib-o'sgan maskanning qiyosi oldida hatto oltin qasr ham arzimasligi yuksak darajada tarannum etilgan ... bu misralarni izohlab o'qishga hojat bo'lmasa kerak!" degan izoh keltirilgan.

So'ng Toshpo'lat Hamidning "Temir darvoza" dostoni lirik qahramoni tilidan Vatan madhiga bitgan quyidagi misralar eslanadi:

**Qaysin og'a, Rasul og'alar  
Tog'larini maqtasin mayli  
Oy ko'rinar Qizilqum menga,  
Olov yurakligi tufayli.  
Agar taqdir otsa yiroqqa,**

**Kesilsa-da ikki oyog‘im;  
Topar edim uni so‘roqlab,  
Mehri bo‘lib qo‘ltiqtayog‘im.**

Vatandan ayri qalb talpinishlariga bundan ortiq tashbeh topish mumkinmi?” degan ritorik so‘roq bilan she’rning badiiy – estetik mohiyatini izohlashga harakat qiladi. Jurnalist maqolaning ommabopligrini ta’minalash maqsadida Hindistonday yurtni zabit etgan Boburni yodga oladi va “Boburnoma” ni o‘qishga da’vat etadi. Haqiqatan ham “Boburnoma”day ulug‘ asarni o‘qir ekanmiz, unda yurt sog‘inchi bosh mavzu ekanligini bilib olamiz. Ketma –ket javobsiz (aslida javob ham talab qilmaydigan - mualliflar ) savollar orqali fikr ta’sirchanlinini oshirishga erishadi.

Jurnalist bugungi vatanparvarlarning ham yorqin qiyofasini chizishga urinadi. “Ular, - deydi muallif – ona yurtimizni ko‘rkam maskanga aylantirish, yanada obodonlashtirish, hiyobonlar barpo etish, yo’llar chiqarish, muqaddas qadamjolarni obod qilishdek nihoyatda ser mashaqqat, qiyin yumushlarga qo‘l urishmoqda. Keng ko‘lamli bunyodkorlik ishlariga bosh-qosh bo‘lishmoqda.”

Maqolada ona roziligi olmagan farzandning ikki dunyosi kuygani kabi, vatanning ham tuzini yeb, yuziga tupurganlar ham toabad tavqi la’natga uchrashi, nadomatga qolishi o‘xshatish usuli bilan dadillab berilgan. “Taasuffki, - deb fikrini davom ettiradi muallif - bu toifa odamlar ba’zan ilmiy darajaga ega yoki orttirgan mol - dunyosi o‘ziga yetib ortadigan, kezi kelsa boshqalardan o‘zini aqlli, bilimdon sanaydiganlar, mehr-oqibat haqida og‘izz ko‘pirtirib gapiradiganlar oramizda hali uchrab turadi. Shu o‘rinda ona- Vatan qadrini teran anglash, vatanparvarlik uchun nuqul bilim yoki boylik sohibi bo‘lish kifoya emas, buning uchun ijtimoiy ahvoli qandayligidan qat’iy nazar, insonning eng avvalo, ma’naviyati boy, iymoni pok, e’tiqodi sobit, eng muhimi, mehr-muruvvatlibo‘lishi, loqaydlik domiga ilinmasligi “ta’kidlanadi.

Maqolada keyingi fikr terrorizmga, xususan, Romitan tumani Qaxramon qishlog‘ida yuz bergen portlashga qaratiladi: “chindan ham

boshqalarning zavolini o‘ylab tuzgan ma’shum rejalarining o‘zlari qurboni bo‘lgan kimsalar ona - Vatan muqaddasligini unutish, uning tinchligini buzish, begunoh kishilarning qonini to‘kish gunohi kabira ekanligini, nafaqat o‘zlari, balki el-avlodlari, shu yurt farzandiman, degan katta- kichikning yuzlarini yerga qaratishga, ona yurt sha’niga qora dog‘ chaplashlarini teran anglaganlarida, yovuz niyatni ko‘ngilga tugisharmidi?...”

Maqolada Vatanning qaerdan boshlanib, qaerda tugashi aniq ifodalab beriladi: “Komillik sari intilayotgan, fikr doirasi keng, ma’naviyati boy inson nazdida vatan - ona sayyoramizdir”deb savolga javob beriladi.

Nazarimizda, bu maqolada fikrlar takrori mushtariyni sal zeriktirib qo‘yadi. “Vatan-sajdagoh kabi muqaddas” degan fikr maqolaning ikki-uch yerida uchraydi.

Bugun mulkchilikka munosabat o‘zgarmoqda.

Dastlab oldingi mulkchilik shakli – kolxozlar haqida gapiriladi.

“Taftishchi xuddi sihatgohga kelgan hordiq chiqaruvchiga o‘xshab xo‘jalik mehmonxonasida joylashib olar, muomalayu mulozamatni o‘rniga qo‘yib avval hisobxona hujjatlaridan uch -to‘rtta yeng ichida bitirilgan qing‘irlikning qiyig‘ini topar, so‘ngra korxonasini ko‘rsatishga kirishardi”. Shundan so‘ng kolxozi raisi va bosh bug‘galterning kerakli shaxslarning og‘zini moylashga harakat qilishlari, hatto mashinasiga benzin quyishlari-yu xo‘jalik hisobidan u-bu ilinishlarigacha achchiq kulgu asosida hikoya qilib beriladi.

Kolxozga tegishli bo‘lgan kishilar tilidan kolxoz sharoiti yaxshiliginini ta’riflanadi.

“ – Kolxoz sog‘in sigir, - deya iqror bildirgandi bir rais tanishimiz o‘zaro suhbat chog‘ida og‘zi qizib, - taftishchi-yu organdagilar sog‘adi. O‘zimiz sog‘amiz. Mehmonlar, kamissiyalar, yuqoridagilarni yedirib ichiramiz. Oshna, og‘aynilarni ko‘nglini olamiz.”

Maqolada kesatiq, piching ma’nosidagi iboralar ustalik bilan qo‘llangan. Masalan: “Qozonga qo‘li tekkan barmog‘ini yalar”.

Keyinroq maqolada Mustaqillik davrida amalga oshirilgan islohotlar , fermer xo‘jaligiga o‘tish, mulkni xususiylashtirish kabilar

iqtisodiy sohada ijobiy o‘zgarishlarga olib kelganligi birin -ketin asoslab beriladi.

Buxoro viloyati misolida tender tanlovlari ko‘rsatib o‘tilib, ayrim o‘rinlarda “issiq joylari ” ni sovitishni istamay, islohotlarga tilda xayrixoh bo‘lib, amalda tuzumning “eski hammom, eski tos” qabilida davom etishidan umidini sira uzolmayotganlar ham aytib o‘tiladi.

“O‘tkazilayotgan bu tarixiy islohot esa dehqonchilikka to‘sinq bo‘layotgan, dalada peshona terini to‘kib mehnat qilgan oddiy dehqonning kosasini oqartirishga xalaqit berayotgan bakovulsifatlarning esini og‘dirdi, yasovul sifatlarni esa tekin tomoqdan mahrum qildi. Zero, qilingan bu ishlar yer o‘zining munosib egasini topishga asos bo‘ladi”, – deya tugallanadi maqola.

Jahongir Ismoilovning panflet janrida yozilgan “Iloji bo‘lsa, kitob chiqaring” maqolasi (“Buxoronomo”, 2006 yil, 29 mart )da past saviyali kitoblar haqida kuyunchaklik bilan fikr yuritilgan. Bir jurnalistning oldiga o‘n besh - yigirma yildan buyon she’r mashq qilib yurgan tanishi keladi va va bir dasta “she’r”larini berib fikrini aytishni so‘raydi. Bu mashqlar bilan tanishib chiqqan matbuot xodimi havaskor qalamkashning yozganlari badiiyatdan ancha yiroqligini aytib, faqat havasning o‘zi yetmasligi, izlanishi kerakligini aytadi.

Havaskor “she’rnavis” tahririyatga navbatdagi kelishida kitobini bosmaxonaga bergenligini aytadi. Shundan so‘ng jurnalist va kitob chiqarish bilan mashg‘ul bo‘lgan “shoir”ning suhbat qizg‘in davom etadi.

“ – Pul borida yozganlarni to‘plib kitob qilib qo‘yaylik, dedim. Ilhom yana qaynayapti, - tanishim xayrlashayotib mamnun jilmaydi.

Men ham suhbatlashish asnosida kitoblarni varaqlab, ayrim she’rlariga ko‘z yogurtirib ulgurgandim.

- Pul hovir berib qaynatayapti shekilli, - dedim ham hazil va kesatish ma’nosida.” Bu ham yetmagandek endi “shoir” Yozuvchilar uyushmasiga a’zo bo‘lishni istab qolganligi ma’lum bo‘ladi.

Jurnalist yana o‘z fikrini mushtariy bilan o‘rtoqlashadi: “Ochig‘i, men sizga aytsam, hozir kitob chiqarishdan osonroq ish bo‘lmay qoldi.

Cho‘ntak kovlasangiz bas. Bobokalonlarimizning “Pul bo‘lsa, changalda sho‘rva”, degan bashoratlari shu borada yuz ming karra haq bo‘lib chiqdi.” Maqolani o‘qib boraverar ekansiz, jurnalist kitobxonga “maslahat” bera turib bugungi kunda kitob chiqarishni “hobbi”ga aylantirib olganlar ustidan istehzoli kula boshlaganini ko‘rasiz: “Ha, umr o‘tadi. Faqat kitob qoladi”. U kitob javonda chang bosib yetadi. Albatta, uni yirtibmi, axlatga tashlab yuborishmagan bo‘lsa ” . Hozirgi kunda hamma “Xotiralar” chiqarish bilan band. Yaxshimi, yomonmi ishi yo‘q. Ayniqsa, hozirgi kunda odatga aylanib borayotgan kitobga rasmlar ilova qilishni ham juda o‘rni bilan aytilgan. Kitob yozish qo‘lidan kelmay pulga yozdiradiganlar, o‘zini maqtashdan tolmaydiganlar, telefon orqali uni majburan sottirayotganlar va hokozo - barchasi uchrab turadi. Bugungi kundagi amaldan foydalanib bir necha ming nusxada kitob chiqarib majburan realizatsiya qilish ham jurnalist diqqatidan qochib qutula olmaydi: “Kitob chiqarishdagi tartib, talab va mezonlar o‘zgaradigan, pulga emas, uning ahamiyati, mazmuni va boshqalarga qay darajada naf keltirishiga qarab yondashiladigan kunlar kelsa, dog‘da qolasiz. Unda yozganlaringiz changu mag‘or qilib yotaveradi. Imkoniyatni boy berib yubormaslik, afsus – nadomat chekib yubormaslik uchun pulingiz borida hozir kitob chiqaring, keyin kech bo‘lishi mumkin.” Maqola ana shunday istehzo bilan intiho topgan. Bu esa ma’rifatparvar ijodkorning dil so‘zlaridir. Maqolaga “J.Haqnazar” deya imzo qo‘yilgan. Unga ishlangan karikatura va lirik chekinish tarzida berilgan latifa ham maqolaning badiiy qimmatini oshishga sabab bo‘lgan.

Jahongir Ismoilov xalqimizning siyosiy ongini o‘sirishga qaratilgan maqolalarning ham muallifidir. Uning Prezident saylovi arafasida chop etilgan “Mening qat’iy xulosam” maqolasi (“Ma’rifat”, 2000 yil 2\I) ana shunday publitsistik asarlar sirasiga kiradi. Maqola fuqarolarimizni saylov jarayonlarida faol ishtirok etishga chorlaydi.

Umuman olganda , Jahongir Ismoilov qaysi sohada ijod qilmasin, har bir muammoga teran mushohada bilan yondashishga harakat qilgan. Zero, unga bejiz “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan jurnalist” unvoni berilmagan.

Binobarin, ijodkorning bugunning dolzarb muammolari, yutuq va kamchiliklarini ochib berishda publitsistika sohasidagi xizmatlari ham ahamiyatga molik. U publitsist sifatida ijod qilar ekan, jamiyatni ma’rifatli ko‘rish, ma’rifatli ko‘rish, ma’rifatli qilishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yagan.

## Xulosa

Badiiy adabiyot san’atning eng oliy sohasidir. “Har qanday boshqa san’at shakli o‘z ijodiy faoliyatida ko‘rinishi uchun vosita bo‘lgan material bilan ma’lum darajada siqilgan va chegaralangan holda bo‘ladi. Badiiy adabiyot boshqa san’atlarning hamma unsurlarini o‘z ichiga oladi, bo‘lak san’atlarning har biriga ayrim ravishda berilgan hamma vositalardan bir va raqam va to‘la suratda foydalaniladi”, - degan edi V.G. Belinskiy . Jahongir Ismoilov - ana shu ajib san’atning jonkuyar vakili sifatida Buxoro adabiy muhitida faol va samarali ijod qilayotgan qalam sohiblaridan biri .

U o‘z ijodini adabiyotning turli sohalarida qalam tebratish bilan rivojlantirib kelmoqda .

Ijodkor she’riyati mavzu ko‘لامи jihatidan serqirra. U hayot falsafasini nazmga solishga intiladi. She’r bu dard degani. Xohlaydimi yo‘qmi shoir, albatta, dard kishisi bo‘lishi kerak. J.Ismoilovda dard bor.U shu dardlarni hayotdan olib kuylaydi. Jimjimador, ko‘zni ishontirsa-da qalbni ishontira olmaydigan so‘zlarni so‘zlamaydi. Uning she’rlari ezgulikni, yaxshilikni ulug‘lashi bilan e’tiborga molik .

Shoirning ijodida xalqning, millatning o‘y, tashvishlari, quvonch – qayg‘ulari, dard-alamlari bilan yo‘g‘rilgan nafas ufurib turadi.

J.Ismoilov badiiy ijodining yana bir qirrasi - nosirlik.Uning nasrida asosan ayrim odamlarning qusurli tomonlari keskin tanqid ostiga olinib satirik tarzda tasvirlanadi. Adib turli tashkilotlarning katta-kichik rahbarlari faoliyatini tasvir manbasi qilib olgan, ayrim nopol amaldorlarning nojo‘ya xatti-harakatlarini satirik kulgu vositasida ochib ko‘rsatgan. ”Chunki –deydi ijodkor, - jamiyatni boshkarishda rahbar-xodimlarning o‘rni muhim. Shuning uchun avvalo ular illatlardan forig‘ bo‘lishlari kerak. ”

Ijodkorlarning publitsistik xizmatlari ham ahamiyatga molik. U publitsist sifatida ijod qilar ekan, jamiyatni ma’rifatli ko‘rish, ma’rifatli ko‘rish, ma’rifatli qilishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi.

Xulosa qilib aytsak, Buxoro, shuningdek, mamlakatimiz adabiy-badiiy, xususan, jurnalistik muhitida bu jonkuyar va fidoiy ijodkorning o‘ziga xos o‘rni bor. Vatan va el-ulus istiqboli yo‘lida yashab qalam tebratayotgan adib va shoir ilhom va dard bilan insho etilajak yangi asarlari bilan adabiyot va matbuot ixlosmandlarini xursand qilishda davom ettiraveradi degan qutlug‘ niyat ushbu risolamizni yakunlaymiz.

## **Mundarija**

Muqaddima.....	3
Hayot dorulfununi.....	5
She’riyatning o‘zi ulug‘ dard.....	9
Nasr chorrahalarida.....	19
Elparvar publitsist.....	28
Xulosa.....	3

G‘ayrat Murodov, Nafisa A’loeva

## **ELPARVAR IJODKOR**

Adabiyotshunoslikka oid nashr

“Buxoro” nashriyoti, 2009

Jahongirning she’rlarida yoshlikning yurakni talpintiruvchi tuyg‘ulari, bezovta xayol mavjlari, orzu umidlarning yallug‘i, harorati. Ularning aksariyatida mazmun ravon misralar jarangdor, hayajonli qofiyalar undovli.

**Jamol KAMOL,**  
**O‘zbekiston xalq shoiri**